

O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK SANOATINING BARQAROR RIVOJLANISHI

T.S. Saidmuradova

Katta o'qituvchi

To'rayeva S.B.

Talaba.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21936976>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining bugungi holati, ya'ni to'qimachilik sanoati korxonalari soni, uning jadal va barqaror rivojlanish tendensiyalari hamda tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Unda paxta tolasini chuqur qayta ishlash, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar eksport dinamikasi yoritilgan. Shuningdek, yengil sanoat mahsulotlarining eksport geografiyasi va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari kabi masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: yengil sanoat, to'qimachilik, tayyor mahsulot, kiyim-kechak, paxta tolasini, eksport, eksport geografiyasi, qo'shilgan qiymat, raqobatbardoshlik, modernizatsiya, innovatsiya.

Аннотация. В статье анализируется текущее состояние текстильной промышленности Узбекистана, в частности количество предприятий, тенденции стремительного и устойчивого развития, а также значимость данного сектора для национальной экономики. Особое внимание уделяется вопросам глубокой переработки хлопкового волокна и динамике экспорта готовой продукции с высокой добавленной стоимостью. Кроме того, рассматриваются такие аспекты, как география экспорта продукции легкой промышленности и возможности повышения конкурентоспособности на внешних рынках.

Ключевые слова: легкая промышленность, текстиль, готовая продукция, швейные изделия, хлопковое волокно, экспорт, география экспорта, добавленная стоимость, конкурентоспособность, модернизация, инновации.

Abstract. This article analyzes the current state of the textile industry in Uzbekistan, specifically the number of enterprises, trends of rapid and sustainable development, and the sector's significance to the national economy. It highlights the deep processing of cotton fiber and the export dynamics of high-value-added finished products. Additionally, the article examines issues such as the export geography of light industry products and opportunities for enhancing competitiveness in foreign markets.

Keywords: light industry, textiles, finished products, clothing, cotton fiber, export, export geography, value-added, competitiveness, modernization, innovation.

Kirish

Bugungi kunda to'qimachilik sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunga sanoatning o'z xomashyo bazasi mavjudligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga talabning tobora ortib borayotgani ko'p jihatdan yordam bermoqda.

Mamlakatimizda to'qimachilik sanoati o'zining raqobatbardosh salohiyatidan kelib chiqib, yangi korxonalar tashkil etishda, aholi bandligini ta'minlashda, mahsulotlarni eksport qilishda va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda yetakchi o'rinlarni egallab, mamlakat milliy iqtisodiyotini jahon miqyosida ixtisoslashtirishda strategik muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 15 yanvardagi "Mahalliy yengil sanoat korxonalarining xalqaro yetkazib berish zanjirlarida ishtirokini kengaytirish hamda tashqi bozorlarda o'rnini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4-son farmonida ishlab chiqarish hajmi 2026 yilda 9 foizga o'sishini ta'minlash va 146 trillion so'mga, 2027 yilda 10 foizga o'sishini ta'minlash va 167 trillion so'mga yetkazish; sohaga 2026 yilda 2,2 milliard AQSH dollari, 2027 yilda 2,5 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish; eksportni 2026 yilda 4 milliard AQSH dollariga, shu jumladan, elektron savdo platformalari orqali 700 million AQSH dollariga, 2027 yilda 4,5 milliard AQSH dollariga, shu jumladan, elektron savdo platformalari orqali 1 milliard AQSH dollariga yetkazish; amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida 2026-2027 yillarda 80 mingta ish o'rinlarini yaratish; xalqaro yetkazib berish zanjirlarida mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish maqsadida 2026-2027 yillarda 40 ta xorijiy brendlar va «sorsing» kompaniyalar bilan hamkorlik o'rnatish kabi masalalar ko'rib chiqilgan xamda Yengil sanoat sohasi korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar bo'yicha Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi 2026-2027 yillarda to'qimachilik tarmog'ida ishlab chiqarish jarayonlarini standartlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha o'rta va yirik korxonalarda tejamkor ishlab chiqarish va boshqa samarador boshqaruv modellarini joriy etish dasturini Yengil sanoatni qo'llab-quvvatlash mablag'lari hisobidan moliyalashtirish ko'rsatib o'tilgan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Lenko O.V., Sanoat korxonasini boshqarish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyatini baholash bo'yicha bir qator taklif tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida korxonalarni boshqarish – tizimli dasturiy ta'minot va kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish asosida boshqarish vazifalarini hal etish uchun ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va axborotni muhofaza qilish, bilim usullari va vositalari majmuini tashkil etishdan iboratdir. Boshqaruvda axborot texnologiyalari avtomatlashtirilgan tarzda tez-tez ishlatiladi, ya'ni texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda boshqarish texnologiyalarini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Dedov O.A. Sanoat korxonalar boshqaruv tizimini shakllantirish umumiy holda boshqaruv usullari tizimlarini yaratish orqali amalga oshiriladi. Zaruriy natijaga erishish maqsadida tashkiliy tizim faoliyatini amalga oshirish sanoat boshqaruv tizimini ushbu tizimga ta'sir etishi orqali bajarilishi hamda sanoat korxonasining iqtisodiy moslashuvini boshqarish usullari bo'yicha yondoshuvlari ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida monografik tahlil hamda ekspert va tizimli tahlil usullaridan foydalangan holda yengil sanoatning iqtisodiy va strategik rejalashtirish, yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta'minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish bo'yicha takliflar tayyorlandi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda yengil sanoat korxonalari soni yil sayin ortib bormoqda. 2026 yil 1 iyun holatiga mamlakatda kiyim ishlab chiqarish sohasida 6,2 mingta, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida 3,8 mingta korxona faoliyat yuritgan.

Ushbu ikki yo‘nalishdagi korxonalarning umumiy soni qariyb 10 mingtani tashkil etgan.

Bu ko‘rsatkich yengil sanoatda tadbirkorlik faolligi, ishlab chiqarish quvvatlari va ichki hamda tashqi bozorga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayib borayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston yengil sanoat bozori katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsiy foydalanish uchun turli xil mahsulotlar ishlab chiqaradi va shu bilan odamlarning moddiy farovonligining eng muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil qilib, quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- iste‘molchi bilan chambarchas bog‘liqlik, muayyan hudud aholisining tarixiy, geografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog‘liqligi;

- moda, did va boshqalarning o‘zgarishi tufayli mahsulot assortimentining tez o‘zgarishida ifodalangan sanoatning maxsus dinamikasi;

- xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, aksessuarlar va ularning dizayniga, shuningdek, texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil etishga qo‘yiladigan talablarning o‘zgaruvchanligi;

- ishchi kuchi sifatiga alohida talablar (badiiy madaniyat, did va boshqalar) mavjudligi [6].

So‘nggi yillarda sohada xomashyoni qayta ishlashdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni kuchaydi. Ayniqsa, paxta tolasini ip-kalava, mato va tayyor kiyim-kechakka aylantirish orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirishga e‘tibor qaratilmoqda.

Bu esa milliy mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish imkonini bermoqda.

Tarmoqda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ishlab chiqarish usullarining joriy etilishi ham muhim o‘zgarishlardan biridir. Yangi korxonalarning tashkil etilishi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiya qilinishi va avtomatlashtirish darajasining oshishi mehnat unumdorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda [3].

Shu bilan birga, yengil sanoat oldida bir qator vazifalar ham mavjud. Jahon bozoridagi raqobatning kuchayishi mahsulot sifati va dizaynini takomillashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va malakali kadrlar tayyorlashni talab etmoqda. Korxonalarning zamonaviy marketing va brend strategiyalaridan foydalanishi ham tashqi bozorlarga chiqishda muhim omil bo‘lib qolmoqda.

O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston paxta resurslari markaziga aylandi va paxta xomashyosining asosiy qismini eksport qilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib to‘qimachilik sanoati mamlakatimizda yetishtirilgan 3,0 mln. tonnadan ortiq paxtani 100 % qayta ishlash, qo‘shimcha ravishda qo‘shni davlatlardan paxta tolasini import qilish quvvatlarini yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, to‘qimachilik korxonalarining yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishda asosiy e‘tibor tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksportdagi ulushini oshirishga qaratilmoqda. (1- jadval)

Jahon bankining O‘zbekiston statistikasi va USDA/UzStat ma’lumotlari asosida 2020–2021 yillar uchun ham hajm, ham qiymat berilgan; 2022 yildan keyin xom paxta tolasi eksporti deyarli to‘xtagan [4].

1-jadval

Paxta tolasining eksport dinamikasi

Yillar	Eksport hajmi, ming tonna	Eksport qiymati, mln AQSH dollar
2020	100	147

2021	73	137
2022	-	4
2023	-	0
2024	-	0
2025	-	0

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki 2020 yilda O'zbekiston 100 ming tonna paxta tolasini 147 mln dollar qiymatida eksport qilgan. 2021 yilda eksport hajmi 73 ming tonnaga, qiymati esa 137 mln dollarga tushgan. 2022 yilda xom paxta tolasini eksporti keskin qisqarib, qiymat jihatidan bor-yo'g'i 4 mln dollarni tashkil etgan. 2023–2025 yillarda esa IMF ma'lumotlarida paxta tolasini eksporti 0 dollar sifatida qayd etilgan.

Bu o'zgarish O'zbekistonning paxta xomashyosini mamlakat ichida qayta ishlash va ip-kalava, mato, tayyor trikotaj hamda kiyim-kechak kabi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni eksport qilishga o'tishi bilan bog'liq. 2022 yilga kelib mamlakatda yetishtirilgan paxta tolasining 100 foizini ichki korxonalarda qayta ishlash darajasiga erishilgani rasmiy xabarlarda ta'kidlangan [4].

Мамлакатимиз енгил саноатининг етакчи тармоқларидан яна бири кийим саноати бўлиб, ишлаб чиқарилаётган газламаларнинг катта қисмини истеъмол қилади, юқори меҳнат зичлиги, маҳсулотларга, айниқса, модага мос маҳсулотларга бўлган фаол талаб, шунингдек, товарларнинг фавқулудда хилма-хиллиги билан ажралиб туради. ҲА'ни, yetishtirilayotgan paxta xomashyosining asosiy qismi yuqori qo'shilgan qiymatga ega kiyim-kechak mahsulotlari, trikotaj mahsulotlari va boshqa shu kabi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va eksport qilinmoqda.

1-jadval

2025 yilda to'qimachilik mahsulotlari eksport hajmi

Mahsulot turi	Qiymati, mln AQSH doll.	Ulushi
Tayyor to'qimachilik mahsulotlari	1 429,5	54,3%
Ip-kalava	710,8	27,0
Trikotaj mato	289,6	11%
Gazlamalar	157,9	6%
Chulki-paypoq mahsulotlari	52,7	2%
Gilamlar	26,3	1%
Jami	2 632,5	100%

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksporti O'zbekiston yengil sanoatida yuqori qo'shilgan qiymat yaratishning muhim yo'nalishiga aylanmoqda. 2025 yilda Tayyor to'qimachilik mahsulotlari eksportining jami qiymati 1 429,5 mln. dollarini, ya'ni jami eksport hajmining 54,3% ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki tarmoqda tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish salohiyati sezilarli darajada kengaygan [5].

O'zbekiston yengil sanoati mahsulotlari eksporti geografiyasi so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Xususan, bugungi kunda to'qimachilik mahsulotlari 55 tadan ortiq mamlakatlarga eksport qilinib kelinmoqda.

Asosiy bozorlar sifatida, avvalo, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Polsha, Pokiston, Eron, Italiya va Belarusiyajarni ko'rsatish mumkin.

Xulosa

Umuman olganda, mamlakatimizda asosiy yengil sanoat tarmoqlari sifatida to'qimachilik, kiyim-kechak va poyafzal sanoatini ko'rishimiz va yengil sanoatning bugungi holatini ijobiy baholash mumkin. Tarmoqda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini ko'paytirish va hududlarda bandlikni ta'minlash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanish sohaning kelgusi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 15 yanvardagi "Mahalliy yengil sanoat korxonalarining xalqaro yetkazib berish zanjirlarida ishtirokini kengaytirish hamda tashqi bozorlarda o'rnini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16 sentabr 2019 yildagi "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlabchiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4453-son Qarori.
3. Dedov O.A. Upravleniye ekonomicheskoy adaptatsiyey promishlennogo predpriyatiya. - Yekaterinburg: Institut ekonomiki UrO RAN, 2002.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosi. Rasmiy statistik ma'lumotlar. Toshkent, 2021–2026.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. To'qimachilik mahsulotlari eksporti bo'yicha statistik ma'lumotlar. Toshkent, 2025–2026.
6. Дедов О.А. Управление экономической адаптацией промышленного предприятия. - Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2002.